«TASDIQLAYMAN»
Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i

_____ A.Bobomirzayev

«04» yanvar 2021 y.

Dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash Markazi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent shahar statistika boshqarmasi Dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash Markazining (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3165-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Toshkent shahar statistika boshqarmasining (keyingi o'rinlarda Statistika boshqarmasi deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning me'yoriy qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi qarorlari va tavsiyalariga, "Toshkent shahar statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Statistika boshqarmasi tizimida, Markaz faoliyati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) rivojlantirish, Statistika boshqarmasi faoliyatida foydalanish samaradorligini oshirish, davlat interaktiv xizmatlar faoliyatini rivojlantirish, dasturiy ta'minot va maxsulotlar bilan taminlashga yo'naltirilgan.

5. Markaz o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) axborot-texnologiyalarni rivojlantirish sohasida:

Statistika boshqarmasining axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirishda yagona texnologik siyosatni aniqlash;

idoralararo axborot almashinuvi mexanizimi va reglamentini ishlab chiqishda ishtirok etish.

b) interaktiv davlat xizmatlari va axborot resurslarini rivojlantirish sohasida:

Statistika boshqarmasi tizimidagi interaktiv davlat xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan ahamiyatli yo'nalishlarni aniqlash;

Statistika boshqarmasi ko'rsatayotgan interaktiv davlat xizmatlari sifatini oshirish va kelajakdagi rivojlanishini ta'minlash;

axborot resurslari, axborot tizimlari va interaktiv davlat xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etish;

Statistika boshqarmasining internet-resurslarini ishlashini va rivojlanishini ta'minlash.

v) statistik ishlarni dasturlashtirish va xizmat ko'rsatish sohasida:

funksional statistik masalalarni yechishini ta'minlovchi ixtisoslashtirilgan dasturlarni joriy etish, qo'llab – quvvatlash va rivojlantirishga oid ishlarni tashkillashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan samarali foydalanish, statistik ma'lumotlarni sifatini oshirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va tahlil qilish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish;

statistik materiallarni ishlab chiqishning avtomatlashtirilgan kompleksini yaratish bo'yicha loyiha ishlarida ishtirok etish;

Statistika boshqarmasi va tuman statistika organlarining hisoblash texnikasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;

Statistika boshqarmasi va tuman statistika organlarining lokal va korporativ tarmoqlarini nazorat qilish va boshqarish.

g) axborot xavfsizligi va elektron ma'lumotlar bazasi arxivini saqlash sohasida:

statistik ma'lumotlarning axborot xavfsizligini ta'minlash;

Markaz vakolatiga kiruvchi elektron ma'lumotlar bazasi arxivini saqlashni takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish;

elektron ma'lumotlar bazasi arxivini saqlash tizimi foydalanuvchilariga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash.

7. Boshqarmaga yuklatilgan ishlarni bajarishda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika boshqarmasining axborot texnologiyalari doirasida yagona texnologik siyosatni tashkillashtiradi;

Davlat statistika organlarida yangi axborot texnologiyalarini joriy etishni muvofiqlashtiradi va ishlashini ta'minlaydi;

Statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytini va boshqa internet-resurslarni yuritish va texnik qo'llab quvvatlashni amalga oshiradi;

Boshqarma vakolatlari doirasida davlat dasturlari va axborotlashtirish loyihalarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

interaktiv davlat xizmatlarini, axborot tizimlarini va axborot resurslarini hamda funksional statistik masalalarni yechishni ta'minlovchi ixtisoslashtirilgan dasturlarni joriy etish, qo'llab quvvatlash va rivojlantirish;

elektron ma'lumotlar bazasini arxivini saqlashni ta'minlovchi tizimlarni nazorat qilishni amalga oshiradi;

tuman statistika organlariga axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha uslubiy va konsultativ yordam ko'rsatadi;

Statistika boshqarmasi va tuman statistika organlarining hisoblash texnikasini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini olib boradi;

Markaz vakolatiga kiruvchi poligrafiya ishlarini amalga oshiradi;

statistik ma'lumotlarning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajaradi;

Statistika boshqarmasi va tuman statistika organlarining lokal va korporativ tarmoqlarini nazorat qilish va boshqarish ishlarini amalga oshiradi;

Davlat statistika organlarida axborot resurslari, ma'lumotlar bazasi, axborot tizimlari va interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi;

Markaz xodimlarining doimiy ravishda malakasini oshiradi;

Markazga yuklangan boshqa funksiyalarni o'rnatilgan tartibda amalga oshiradi.

3-bob. Markazning huquqlari va majburiyatlari

8. Markaz o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

o'z faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan server xona va asbob uskunalar bilan ta'minlanishi;

o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish davomida belgilangan tartibda Statistika boshqarmasining boshqa bo'linmalardan va tuman statistika organlaridan malumotlarni so'rash va olish;

Statistika boshqarmasida mavjud informatsion bazalardan foydalanish;

Statistika boshqarmasi rahbariyatiga davlat statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

Davlat statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Markaz vakolatiga kiruvchi ishlarni bajarish bo'yicha muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika boshqarmasi bo'limlari bilan instruktiv majlislar o'tkazish;

Markaz faoliyatiga taaluqli masalalar bo'yicha konferensiya ishlarida, shu jumladan seminar va majlislarda, shuningdek loyixalarda ishtirok etish.

9. Markazning javobgarligi:

o'ziga yuklatilgan vazifalarni xaqqoniy tarzda va samarali amalga oshirish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa malumotlarni yuqori darajada tayyorlash;

Markaz xodimlari tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash;

Markazga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarining saqlanishi, yakka tartibdagi ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

4-bob. Markaz tuzilmasi

10. Markaz tuzilmasi tarkibiga Markaz boshlig'i, yetakchi muhandis-dasturchi, hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha yetakchi muhandis, yetakchi muhandis-sistema ma'muri, axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandis, 1-toifali muhandis-dasturchi, hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha 1-toifali muhandis, 1-toifali muhandis-sistema ma'muri kiradi.

11. Markazning ishlarida Markaz boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Markaz boshlig'i va xodimlari Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

5-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish

13. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning me'yoriy qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi qarorlari va tavsiyalariga, "Toshkent shahar statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

14. Markazning ish rejasi Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan Statistika boshqarmasining ish rejalari asosida shakllantiriladi va Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

15. Markaz tarkibiga kiruvchi xodimlarning lavozim vazifalari Markaz boshlig'i tomonidan tayyorlanib Statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Dasturiy - texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash Markazi to'g'risida NIZOM bilan tanishganlar ro'yhati

Шакаров Б. Б		4.01.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Тиреншеков Н.Б		04.01.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Базарбаева Р.А		04.01.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Саттаров Б.И		04.01.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Axmatov T.N.		04.13.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Abdurahmonov Z.A		04.01.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Ibragimov B.D		04.11.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
Abdusattorova Y.Sh		13.04.2021
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)
(F.I.O)	(imzo)	(sana)